Boshqaruv hisobi tizimida budjetlashtirishning nazariy-metodologik jihatlari.....	949
Urmanova Umida Hakimdjanovna	
Пути обеспечения инвестиционной привлекательности коммерческих банков узбекистана на основе зарубежного опыта.....	954
Тилеумуратов Азамат Азатович	
Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari.....	959
Ozatbekov Yusupxon Farhod o'g'li	
Mamlakatimizning eksport imkoniyatlari va muammolari.....	964
Ansabxon ZAKIROV	
Цифровизация и прогнозные параметры экспортного потенциала субъектов малого бизнеса.....	967
Мирзахаликов Бобир Бахтиёрович	
Зелёный энергопереход как фактор устойчивого развития энергетики Узбекистана.....	971
Юсупов Ёкуб Рустамович	
Модели и тенденции развития формирующихся финансовых рынков.....	978
Кадирова Хадича Тураевна	
Yashil iqtisodiyot xususiyatlari va rivojlanish omillari.....	983
Israilova Shoiria Turg'unovna	
Davlat moliyaviy nazorati organlarining samaradorligini oshirish yo'nalishlari.....	987
Zuparov Abzaljon Batirjonovich	
Методика расчета устойчивого развития предприятий тэк на основе сводных интегральных индексов.....	991
Г.Ж. Аллаева	
Chet mamlakatlar pensiya tizimining o'ziga xos xususiyatlari.....	995
Tursunov Zohidxo'ja Orifovich	
Davlat fiskal va monetar siyosatining vujudga kelishi.....	1002
Xudaybergenova Nigora Turgunboyevna	
Aksiyadorlik jamiyatlarining innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda banklarning rolini oshirish.....	1005
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
Xarajatlar hisobini mhxs asosida tan olishning o'ziga xos xususiyatlari.....	1010
Xaydarova Surayyo Nasirdinovna	
Zamonaviy turizm yo'nalishlari yangiliklarini sohaga tadbqiq etish va turizm bozorini rivojlantirishda aqlli (smart) texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati.....	1016
Sangirov Utkir Xudoyberdiyevich	
Sanoat korxonalarining raqobatdoshligini ta'minlash salohiyati.....	1021
To'raev Sardorbek To'raevich	
Kichik biznes subyektlari faoliyatini innovatsion rivojlantirish omillari.....	1025
Musayev Ozodjon Shavkat o'g'li	



KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH OMILLARI



Musayev Ozodjon Shavkat o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Biznes boshqaruvi kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimiz iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'rni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni rag'batlantirishga qaratilgan tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlil qilingan. Raqobat sharoitida ularning innovatsion salohiyatini oshirish va investitsion faolligini kuchaytirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, kichik biznes subyekti, mikrofirmalar, aksiyalar likvidligi, intellektual resurslar, innovatsion jarayon.

Abstract: The article focuses on the role of small business and private entrepreneurship in the country's economy, as well as encouraging the development of entrepreneurship in the Republic of Uzbekistan. It analyzes the factors influencing the development of business entities and their innovative potential in competitive conditions, and scientifically based proposals and recommendations on increasing investment activity have been developed.

Key words: small business, private entrepreneurship, small business entity, micro-firms, stock liquidity, intellectual resources, innovative process.

Аннотация: В статье рассматривается роль малого бизнеса и частного предпринимательства в экономике нашей страны, а также стимулирование развития предпринимательской деятельности в Республике Узбекистан. Проанализированы факторы, влияющие на развитие субъектов предпринимательской деятельности и их инновационный потенциал в конкурентных условиях. Разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации по повышению инвестиционной активности.

Ключевые слова: малый бизнес, частное предпринимательство, субъект малого предпринимательства, микро-фирмы, ликвидность акций, интеллектуальные ресурсы, инновационный процесс.

KIRISH

Kichik biznes va tadbirkorlik sohasi yetakchi tarmoqlardan biri bo'lib, asosan iqtisodiy o'sish sur'atlarini, aholi bandligi holatini, yalpi ichki mahsulotning tarkibi va sifatini belgilaydi. Kichik biznesni rivojlantirish moslashuvchan aralash iqtisodiyotni shakllantirish, raqobatbardosh bozor mexanizmining kompleks sintezi va yirik, o'rta hamda kichik hajmdagi mahsulotlarni davlat tomonidan tartibga solishni o'z ichiga olgan mulk shakllarining kombinatsiyasi va mos iqtisodiy modelni shakllantirishga qaratilgan global tendensiyalarga javob beradi.

Kichik biznes – bozor iqtisodiyotining asosi. Kichik biznes obyektiv ravishda zamonaviy bozor iqtisodiyotining nisbatan mustaqil bo'limi sifatida mavjud bo'lib, turli xil va hajmdagi korxonalar, jumladan, kichik korxonalar mavjudligi va o'zaro bog'liqligi bilan ajralib turadi. Katta biznes mamlakat iqtisodiyotining asosiy ehtiyojlarini ta'minlansa, kichik korxonalar bozorda o'z o'rnini egallaydi va mahalliy talab yoki maxsus mahsulotlar va xizmatlar, shu jumladan, innovatsion sohada maxsus ehtiyojlarni qondiradi. Ijtimoiy iqtisodiyotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ijtimoiy taraqqiyotning muhim muammolarini hal qilish uchun iqtisodiy asos yaratishning hal qiluvchi omilidir.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes subyektlari faoliyatini innovatsion rivojlantirish mavzusi bo'yicha ilmiy adabiyotlar sharhi ushbu sohada o'tkazilgan tadqiqotlarni tahlil qilish va asosiy ilmiy qarashlarni umimlashtirishga qaratilgan. Quyida ushbu mavzu bo'yicha muhim ilmiy yondashuvlar va ularning natijalari keltirilgan.

Innovatsion rivojlanish kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Schumpeter va Porter singari iqtisodchilar innovatsiya va raqobat ustunligini korxonalarining asosiy omili sifatida ta'kidlaydilar. Innovatsiyalar korxonalarga yangi mahsulotlar, jarayonlar va xizmatlar yaratish orqali bozorga tezroq moslashish imkonini beradi.

Texnologik innovatsiyalar, ayniqsa raqamlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kichik biznes uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. Davenport va Short raqamli transformatsiyaning biznes jarayonlarini qayta tashkil etish va optimallashtirishdagi rolini ta'kidlaydilar. Ushbu jarayonlar samaradorlikni oshiradi va yangi biznes modellarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Innovatsion faoliyatni rivojlantirishda tarmoqlararo hamkorlik, klasterlar va innovatsion tarmoqlar muhim rol o'ynaydi. Chesbrough tomonidan ilgari surilgan ochiq innovatsiya modeli kichik biznes subyektlariga tashqi hamkorlik orqali yangi g'oyalarni qabul qilish va tatbiq etishda yordam beradi.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik biznes subyektlarining innovatsion rivojlanishi ko'plab omillar, jumladan, davlat qo'llab-quvvatlashi, texnologik taraqqiyot, moliyaviy resurslar va malakali kadrlarning mavjudligiga bog'liq. Innovatsion rivojlanishni ta'minlash uchun har bir omilning muvofiqligi va samaradorligini oshirish zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Kichik biznes subyektlari faoliyatini innovatsion rivojlantirish omillarini o'rganishda umumiylikdan individualikka va aksincha tartibda deduksion yoki induksion usullardan foydalanish samara bersa, abstrakt-mantiqiy fikrlash usuli esa jarayonni tizimli tahlil qilishda ahamiyatlidir. Ilmiy tahlil jarayonida kuzatish, umimlashtirish, guruhlash, taqqoslash kabi usullardan keng foydalanildi, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullarini keng qo'llash orqali yondashildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik tadbirkorlik iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va aholi farovonligini oshirishda muhim o'rin tutadi. U aholi bandligini kengaytirish va daromadlarini oshirish uchun imkoniyatlar yaratadi, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga hissa qo'shadi hamda jamiyatdagi ehtimoliy qarama-qarshiliklarning oldini olishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, kichik biznes raqobatni kuchaytiradi, iste'molchilar uchun sifatli mahsulot va xizmatlarni raqobatbardosh narxlarda taklif etishga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, sog'liqni saqlash va ta'lim kabi muhim sohalarda ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirishga yordam beradi.

Tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini oshirishda innovatsiyalar joriy etilishi va ularning amaliyotda qo'llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro tajribaga ko'ra, davlat va jamiyat rivojlanishining yuksalishi ko'pincha innovatsion faoliyat bilan uzviy bog'liqdir. O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishiga ustuvor ahamiyat berilishi bejiz emas, chunki bu soha ichki bozorni zarur tovar va xizmatlar bilan ta'minlashda katta rol o'ynaydi.

Bugungi kunda kichik biznes yangi ish o'rinlari yaratish, innovatsion yechimlarni tatbiq etish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda yetakchi omil bo'lib kelmoqda. Innovatsion rivojlanish jarayonida turli omillar kichik biznesning o'sishiga ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu maqolada kichik biznesning innovatsion rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar o'rganilib, tahlil qilingan.

Horijiy tadqiqotlar ham kichik biznes subyektlarining iqtisodiy rivojlanishga, yangi ish o'rinlari yaratishga va innovatsiyalarni joriy etishga katta hissa qo'shishini ko'rsatmoqda. Kichik biznes milliy va mahalliy o'sishni ta'minlovchi asosiy xizmatlar va mahsulotlarni taklif etish orqali iqtisodiyotning mustahkam tayanchi hisoblanadi. Ayniqsa, raqobatbardoshlikni oshirish va yangi bozorlarni egallashda innovatsiyalar kichik biznes uchun muhim vosita hisoblanadi.



1-jadval. Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining mamlakat yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushining o'zgarishi (foizda)¹.

Ko'rsatkichlar	Yillar						
	2012	2013	2014	2015	2020	2021	2022
Respublika bo'yicha YalM	100	100	100	100	100	100	100
Jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushi	62,4	63,0	63,6	64,1	64,1	70,0	71,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	63,6	64,0	64,5	64,6	57,0	54,3	55,8
Andijon viloyati	57,0	57,5	59,4	61,4	66,0	73,4	79,9
Buxoro viloyati	54,6	55,8	56,1	56,5	56,9	79,8	79,2
Jizzax viloyati	79,2	79,9	79,9	80,1	80,3	84,3	84,4
Qashqadaryo viloyati	51,4	51,4	51,5	51,6	51,7	64,3	65,1
Navoiy viloyati	35,7	36,1	36,9	37,1	37,6	42,4	47,9
Namangan viloyati	78,4	79,5	79,7	80,2	80,3	79,0	79,9
Samarqand viloyati	75,9	77,1	77,4	77,9	78,0	80,0	81,8
Surxondaryo viloyati	73,7	74,1	74,5	75,2	75,3	79,4	78,7
Sirdaryo viloyati	66,7	67,3	67,7	68,5	68,7	76,9	76,5
Toshkent viloyati	54,6	55,3	56,2	56,7	57,1	57,9	63,6
Farg'ona viloyati	54,6	55,3	56,2	56,7	57,1	69,8	70,6
Xorazm viloyati	73,5	73,8	73,9	74,1	74,2	75,9	78,3
Toshkent shahri	54,6	55,3	56,2	56,7	57,1	63,4	64,2

Yuqorida ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulot (YalM)dagi ulushi yildan-yilga ortib bormoqda. 2012–2022-yillar davomida respublika bo'ylab ushbu sektorning iqtisodiyotdagi ulushi 62,4% dan 71,8% gacha ko'tarilgan. Hududiy tahlillar ham shuni ko'rsatadiki, kichik biznesning ahamiyati ko'pchilik viloyatlarda sezilarli darajada oshgan. Masalan, Andijon viloyatida 2012-yilda 57,0% bo'lgan ko'rsatkich 2022-yilga kelib 79,9% ga yetgan. Bu viloyatda kichik biznesning iqtisodiyotdagi ahamiyati ancha o'sgan.

Buxoro viloyatida 2012-yilda 54,6% ni tashkil qilgan ko'rsatkich 2021-yilga kelib 79,8% ga yetgan, ammo 2022-yilda biroz pasayib, 79,2% ni tashkil etgan. Jizzax viloyatida esa 2012-yilda kichik biznes ulushi 79,2% bo'lgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 84,4% ga ko'tarilgan. Navoiy viloyatida 2012-yilda kichik biznes ulushi eng past darajada – 35,7% bo'lgan, lekin 2022-yilga kelib 47,9% ga ko'tarilgan, ammo o'sish sur'ati boshqa viloyatlarga qaraganda sekinroq bo'lgan.

Innovatsion faoliyat kichik biznesning nafaqat ichki, balki tashqi bozorda ham muvaffaqiyatli bo'lishiga yordam beradi. Shu sababli, kichik biznes subyektlarini innovatsion rivojlantirish jarayonida turli omillarni aniqlash va ularning tahlili dolzarb masala hisoblanadi. Shuningdek, kichik biznes subyektlarining innovatsion rivojlanishiga bir qator omillar sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Ushbu omillar quyidagilar:

Moliyaviy resurslar va investitsiyalar: Innovatsion faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun etarli moliyaviy resurslar zarur. Kichik biznes innovatsiyaga sarflanishi kerak bo'lgan investitsiyalarni topishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda, bu esa ularga yangi texnologiyalarni joriy qilish imkoniyatini cheklamoqda. Moliyaviy resurslar kichik biznes subyektlarining innovatsion faoliyatida muhim o'rin tutadi. So'rov natijalariga ko'ra, kichik biznes subyektlarining katta qismi moliyaviy cheklavlarni innovatsiyalarni joriy etishdagi asosiy to'siq deb biladi.

¹ Manba: Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

**2-jadval. Moliyaviy resurslar va investitsiyalarda kichik biznes subyektlari ulushi.**

Moliyaviy resurslar yetarliligi	Kichik biznes subyektlari ulushi (%)
Yetarli	35%
Yetarli emas	65%

1-jadvaldan ko'rish mumkinki, kichik biznes subyektlarining 65 foizi moliyaviy cheklovlar tufayli innovatsion loyihalarni amalga oshira olmasliklarini bildirganlar. Moliyaviy manbalar va investitsiyalar yetarli bo'lmaganda, kichik biznes o'z faoliyatida texnologik yangiliklarni joriy qila olmaydi.

Kadrlar malakasi va bilim darajasi: Innovatsion jarayonlar ko'p hollarda yuqori malakali kadrlar ishtirokida amalga oshiriladi. Ammo kichik biznes subyektlari ko'pincha malakali kadrlarni jalb qilishda qiyinchiliklarga duch keladi. Bu holat xususan texnik bilim va zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash qobiliyatiga ega mutaxassislar yetishmovchiligi bilan bog'liq. Innovatsion rivojlanish uchun malakali kadrlarning mavjudligi muhim ahamiyatga ega. Kichik biznes uchun yuqori malakali xodimlarni jalb qilish va ularni innovatsion jarayonlarga jalb qilish katta qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin.

3-jadval. Kadrlar malakasi va bilim darajasida kichik biznes subyektlarining ulushi.

Kadrlar malakasi darajasi	Kichik biznes subyektlari ulushi (%)
Yuqori malakali	42%
Yetarli malakaga ega emas	58%

Ushbu jadvalga ko'ra, kichik biznes subyektlarining 58 foizi kadrlar malakasini past deb hisoblaydi, bu esa innovatsion rivojlanish uchun sezilarli to'siq hisoblanadi. Yaxshi tayyorlangan va zamonaviy texnologiyalar bilan ishlay oladigan mutaxassislarining yetishmasligi kichik biznesning innovatsion salohiyatini cheklaydi.

Davlat yordami va qonunchilikdagi imtiyozlar: Davlat tomonidan kichik biznesni qo'llab-quvvatlash innovatsion rivojlanish uchun muhim omil hisoblanadi. O'zbekistonda kichik biznes uchun turli soliq imtiyozlari, kredit resurslariga qulay shart-sharoitlar yaratish kabi choralar ko'rilmogda. Davlat tomonidan kichik biznesni innovatsion faoliyatga rag'batlantirishda ko'rsatiladigan yordam ham muhim omillardan biri sanaladi. Soliq imtiyozlari, moliyaviy yordam va qonunchilikdagi qo'llab-quvvatlov choralari kichik biznes uchun muhim stimullar bo'lib xizmat qiladi.

4-jadval. Davlat yordami va qonunchilikdagi imtiyozlarda kichik biznes subyektlari ulushi.

Davlat qo'llab-quvvatlovining ta'siri	Kichik biznes subyektlari ulushi (%)
Muvaffaqiyatga ijobiy ta'sir qiladi	55%
Yetarli emas	45%

Davlat tomonidan ko'rsatiladigan yordamni kichik biznes rahbarlarining 55 foizi ijobiy baholaydi, ammo 45 foizi davlat ko'magining yetarli emasligini ta'kidlaydi. Bu holat kichik biznes subyektlarining innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlashda davlat choralari yetarlicha emasligini ko'rsatadi. Kichik biznes subyektlarining rivojlanishi uchun yanada kengroq yordam ko'rsatish zaruriyati yuzaga kelmoqda, chunki moliyaviy, infratuzilmaviy va texnologik yordamlar innovatsiyalarni joriy qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Texnologiyalarga kirish va texnik infratuzilma: Innovatsiyalarni joriy qilish uchun zamonaviy texnologiyalarga kirish imkoniyatiga ega bo'lish juda muhim. Texnologik infratuzilmaning rivojlanishi kichik biznes subyektlariga o'z faoliyatini kengaytirish va yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlashga yordam beradi. Biroq, savolnoma natijalariga ko'ra, kichik biznes subyektlarining 50 foizi zamonaviy texnologiyalarga kirish imkoniyatlarining cheklanganligini innovatsion rivojlanishni sekinlashtirayotganini bildirgan. Bu esa kichik biznesni zamonaviy texnologiyalar va texnik resurslarga kirishni osonlashtiruvchi davlat siyosatlariga muhtojligini ko'rsatadi.

Bozor talabi va raqobat muhiti: Innovatsion rivojlanish ko'pincha bozor talablariga bog'liq bo'ladi. Raqobatbardoshlikni oshirish va bozor ulushini ko'paytirish uchun kichik biznes yangi texnologiyalar va mahsulotlarni ishlab chiqishga intiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bozor sharoitlari innovatsion faoliyatga jiddiy ta'sir ko'rsatadi, chunki bozorning o'zgaruvchan talablariga javob berish kichik biznes uchun innovatsiyalarga ehtiyojni

oshiradi. Bozor talabi va raqobat muhiti ham kichik biznes subyektlarining innovatsiyalarga e'tiborini shakllantiruvchi omil hisoblanadi. Innovatsion faoliyat ko'pincha raqobatbardoshlikni oshirish va yangi bozorlarni egallash maqsadida amalga oshiriladi.

5-jadval. Bozor talabi va raqobat muhitida kichik biznes subyektlari ulushi.

Bozor talabi va raqobatning ta'siri	Kichik biznes subyektlari ulushi (%)
Innovatsiyalarni rag'batlantiradi	63%
Innovatsiyalarni cheklaydi	37%

1-jadvalga ko'ra, kichik biznes subyektlarining 63 foizi bozor talabi va raqobat muhiti innovatsiyalarni rag'batlantiruvchi omil ekanligini ta'kidlagan. Bozorning o'zgaruvchan talablariga javob berish va raqobatda qolish uchun innovatsiyalarga bo'lgan ehtiyoj oshadi.

Tadqiqot natijalari kichik biznes subyektlarining innovatsion rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash imkonini berdi. Avvalo, moliyaviy resurslarning yetarli emasligi innovatsion faoliyatni susaytiruvchi asosiy omillardan biri ekanligi ma'lum bo'ldi. Moliyaviy yetishmovchilik tufayli ko'plab kichik biznes subyektlari yangi texnologiyalarni joriy qilish imkoniyatidan mahrum bo'lmoqda. Kichik biznesning innovatsion rivojlanishida kadrlar malakasi ham katta ahamiyatga ega. Texnik bilim va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish qobiliyatiga ega bo'lgan mutaxassislar yetishmovchiligi ko'plab innovatsion loyihalarning amalga oshirilishini qiyinlashtiradi.

Bu, o'z navbatida, davlat tomonidan malakali kadrlarni tayyorlash va kichik biznesga texnik yordam ko'rsatish dasturlarini yanada kengaytirishni talab qiladi. Davlat tomonidan beriladigan moliyaviy yordam va imtiyozlar kichik biznes uchun innovatsiyalarni joriy etishda katalizator rolini o'ynaydi. Shu bilan birga, kichik biznesning zamonaviy texnologiyalarga kirish imkoniyatlari ham muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston sharoitida texnik infratuzilmaning rivojlanishi va texnologik yangiliklarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish kichik biznes subyektlarining innovatsion faoliyatini yanada rag'batlantirishi mumkin.

Bozor raqobati va talab omillari ham innovatsion rivojlanishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Innovatsiyalarni muvaffaqiyatli joriy qilish orqali kichik biznes o'z raqobatbardoshligini oshirishi va yangi bozorlarga chiqishi mumkin. Bu holat bozor sharoitlariga moslashish va raqobatni kuchaytirish uchun innovatsion g'oyalarni joriy qilishga undaydi. Moliyaviy resurslarni jalb qilishda kichik biznes uchun qulay kredit sharoitlari yaratish va investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Bu jarayonda davlat tomonidan subsidiya va grantlar ko'rinishidagi yordam kichik biznesning innovatsion loyihalarni amalga oshirishdagi moliyaviy cheklovlarini kamaytirishi mumkin. Kadrlar malakasini oshirish uchun davlat va xususiy sektor hamkorlikda malakali ishchi kuchini tayyorlash dasturlarini yo'lga qo'yishi lozim. Bu esa kichik biznesning texnologik yangiliklarni o'zlashtirish imkoniyatini oshirib, innovatsion rivojlanishni tezlashtiradi.

Davlat tomonidan kichik biznesga qaratilgan qo'llab-quvvatlash choralari, jumladan, soliq imtiyozlari va moliyaviy yordamlar kichik biznesning innovatsion faoliyatga intilishini rag'batlantiradi. Shuningdek, texnik infratuzilmani yaxshilash orqali kichik biznes subyektlarining zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash imkoniyatini oshirish lozim.

Bozor raqobati va talabning o'zgarishi kichik biznesni innovatsion faoliyatga undaydigan omillardan biri hisoblanadi. Innovatsiyalarni joriy qilish orqali raqobatbardoshlikni oshirish va yangi bozorlarni egallash imkoniyati kichik biznes uchun strategik maqsadga aylanishi lozim. Shu sababli, kichik biznesning innovatsion rivojlanishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosatini yanada rivojlantirish va kichik biznesni har tomonlama qo'llab-quvvatlash orqali ushbu maqsadlarga erishish mumkin.

Yuqoridagi omillarni hisobga olib, kichik biznes subyektlarining innovatsion rivojlanishini ta'minlash uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Moliyaviy, kadrlar, texnologik va bozor sharoitlari kichik biznesning innovatsion faoliyatiga ta'sir qiluvchi eng asosiy omillar bo'lib, ularga qaratilgan strategiyalar kichik biznesning uzoq muddatli muvaffaqiyatli rivojlanishiga asos bo'la oladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Innovatsiyalar hajmining sezilarli darajada o'sishi kichik biznes sub'ektlari ichida innovatsiyalar salohiyatining yaxshilanganligini aks ettiradi. Bu umumiy iqtisodiyotga ijobiy hissa qo'shib, raqobatbardoshlik, mahsuldorlik va texnologik taraqqiyotning oshishiga olib kelishi mumkin. Innovatsiyalar hajmi oshgani sayin, ilmiy



tadqiqot va ishlanmalar sektorlarida ish bilan ta'minlash imkoniyatlari ham oshishi mumkin. Bu ish o'rinlari yaratish va malaka oshirishga olib keladi, iqtisodiyotga yanada foyda keltiradi.

Innovatsiyalar hajmining o'sishi mahalliy va xorijiy investorlarni jalb qilishiga olib keladi. Shuningdek, ushbu sohaga katta e'tibor qaratilayotgan rivojlanayotgan kichik biznes sektori investitsiyalar uchun foydali imkoniyat sifatida qaraladi, bu esa iqtisodiy o'sishni yanada kuchaytirishga zamin yaratadi. Innovatsiyalar hajmiga ijobiy nuqtai nazar tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishi mumkin. Kichik biznes sub'ektlari o'sish va innovatsiyalar uchun potentsialni ko'rayotganligi sababli, ko'proq tadbirkorlar o'z bizneslarini boshlash va kengaytirishga turtki bo'lishi mumkin, bu esa iqtisodiy diversifikatsiya va barqarorlikni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Гусев А.К., Жеребцов В.И. Малый бизнес и инновации: основные проблемы и пути решения.
2. Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlik дарслик. Д.С. Қосимова. 2020-й.
3. Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlik дарслик. Балтабаев М., Қосимова, Эргашходжаева Ш.Ж., Самадов М. 2015-й.
4. Нэреш К. Малхотра. Маркетинговые исследования. Практическое руководство. – М.: Издательский дом Вильямс, 2007. – 1200 с.
5. Qosimova M.S., Abduhalilova L.T. Marketing tadqiqotlari. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2012. - 189 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. www.lex.uz
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 17-noyabrdagi "O'zagrotexsanoatxolding" aksionerlik jamiyati faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2658-son. <https://lex.uz/docs/-4163941>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 31-maydagi "Chigit yetkazib berish mexanizmini hamda o'simlik yog'i va yog'-moy mahsulotlari sotishni tartibga solish to'g'risida"gi PQ-360-sonli qarori.
9. Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5853-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4567334>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

